

XIII. DEMOGRAFIYA

Doimiy aholi soni

Qoraqalpog‘iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2024-yil 1-yanvar holatiga 2 002,7 ming kishini tashkil etib, 2023-yil boshidan 26,5 ming kishiga ya’ni 1,3 % ga o‘sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 978,2 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,8 %), qishloq aholisi soni 1 024,5 ming kishini (51,2 %) tashkil etdi.

E’tiborbering:

2023 yil yanvar-dekabr oylarida

- Aholi soni **26,5 ming kishiga** ko‘paydi.
- Tirik tug‘ilganlar soni **44,0 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **10,1 ming nafarni** tashkil etdi.
- Nikohlar soni **13,6 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **1,9 ming nafarni** tashkil etdi

2023-yilning Yanvar-dekabr oylarida

Yil boshida
Doimiy aholi soni
1 976 222 kishi
(2023-yil 1-yanvar holatiga)



44,0 *ming kishi*

Tug‘ilganlar soni



10,1 *ming kishi*

O‘lganlar soni



8,4 *ming kishi*

Ko‘chib kelganlar soni



15,9 *ming kishi*

Ko‘chib ketganlar soni

Doimiy aholi soni
2 002 668 kishi
(2024-yilning 1-yanvar holatiga)

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni¹⁾
(2024-yilning 1-yanvar holatiga, ming kishi)

	<i>Jami aholi</i>	<i>Shu jumladan:</i>	
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2 002,7	978,2	1 024,5
Nukus sh.	339,2	339,2	0,0
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	212,1	54,6	157,5
Beruniy	205,1	72,3	132,8
Bo‘zatov	21,9	5,6	16,3
Qonliko‘l	53,8	13,7	40,1
Qorao‘zak	54,4	16,4	38,0
Kegeyli	74,8	30,3	44,5
Qo‘ng‘irot	136,0	86,0	50,0
Mo‘ynoq	33,6	14,9	18,7
Nukus	53,9	10,9	43,0
Taxiatosh	76,8	54,8	22,0
Taxtako‘pir	38,9	16,6	22,3
To‘rtko‘l	228,8	85,6	143,2
Xo‘jayli	128,7	82,0	46,7
Chimboy	115,7	59,3	56,4
Shumanay	58,0	15,1	42,9
Ellikqal‘a	171,0	20,9	150,1

¹⁾ dastlabki ma‘lumot

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni (1-yanvar holatiga ming kishi)

	2023 y.	2024 y.	<i>O‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati % da</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1976,2	2002,7	101,3
Nukus sh.	334,6	339,2	101,4
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	208,6	212,1	101,7
Beruniy	201,2	205,1	101,9
Bo‘zatov	21,9	21,9	100,0
Qorao‘zak	54,1	54,4	100,6
Kegeyli	74,2	74,8	100,8
Qo‘ng‘irot	134,6	136,0	101,0
Qonliko‘l	53,1	53,8	101,3
Mo‘ynoq	33,4	33,6	100,6
Nukus	52,9	53,9	101,9
Taxiatosh	76,3	76,8	100,7
Taxtako‘pir	39,0	38,9	99,7
To‘rtko‘l	224,7	228,8	101,8
Xo‘jayli	127,2	128,7	101,2
Chimboy	115,1	115,7	100,5
Shumanay	57,6	58,0	100,7
Ellikqal‘a	167,7	171,0	102,0


Yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy harakati

	<i>kishi</i>			<i>har 1000 kishiga nisbatan promille</i>	
	<i>2022 y.</i>	<i>2023 y.¹⁾</i>	<i>o‘shish, kamayish</i>	<i>2022 y.</i>	<i>2023 y.²⁾</i>
Tug‘ilganlar	42 835	44 021	1 186	21,8	22,1
O‘lganlar	9 585	10 099	514	4,9	5,1
Tabiiy o‘shish	33 250	33 922	672	16,9	17,0
Nikohlar	14 857	13 565	-1 292	7,6	6,8
Ajralishlar	2 067	1 933	-134	1,1	1,0

Tug‘ilish darajasi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida tug‘ilganlar soni 44 021 kishini tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga (42 835 kishi) nisbatan 1 186 kishiga yoki 2,8 foizga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 22,1 promilleni tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga (21,8 promille) nisbatan 0,3 promillega ko‘paydi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-dekabr oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



Tug‘ilish darajasining ko‘payishi Respublikaning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko‘rsatkichning yuqori darajasi Ellikqal‘ada 24,3 dan 25,9 promillega, Bo‘zatovda 15,9 dan 17,5 promillega, Taxtako‘pirda 17,4 dan 18,6 promillega va Nukus tumanida 24,7 dan 25,8 promillega ko‘payishi kuzatilgan.

¹⁾ dastlabki ma‘lumot


²⁾ dastlabki ma‘lumot

Tug‘ilish. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 44,0 mingta kishi tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) mosravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 22,1 promilleni tashkil etdi hamda 2022-yilning mos davriga (21,8 promille) nisbatan 0,3 promillega ko‘payishi kuzatildi.

Ma‘lumotuchun


Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurakurishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti
(2023-yilning yanvar-dekabr oylarida)




O‘lim darajasi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida o‘lganlar soni 10 099 kishini tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga (9 585 kishi) nisbatan 514 kishiga yoki 5,4 foizga ko‘paydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 5,1 promilleni tashkil qildi (2022 yilning yanvar-dekabr oylarida 4,9 promille).

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



O‘lim ko‘rsatkichlari




O‘lim ko‘rsatkichlarining yuqori darajasi Taxtako‘pirda (6,5 dan 8,5 promillega), Chimboyda (5,4 dan 7,2 promillega), Qorao‘zakda (5,7 dan 7,3 promillega) va Shumanay tumanida (3,9 dan 5,4 promillega) ko‘payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYo organlari tomonidan 13,6 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,8 promilleni tashkil etdi.




Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti
(2023-yilning yanvar-dekabr oylari holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)



Nikohdan ajralishlar. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYo organlari tomonidan 1,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
(2023-yilning yanvar-dekabr oylari holatiga)



Nikohlar va ajralishlar. 2023-yilning yanvar-dekabr oylari FHDYo organlarida 13 565 ta nikohlar va 1 933ta ajralishlar ro‘yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 6,8 ta nikoh (2022-yilning tegishli davrida 7,6 ta) va 1,0 ta ajralishlar (2022-yilning tegishli davrida 1,1 ta) to‘g‘ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni
(yanvar-dekabr oylarida, birlik)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2022 y.	2023 y. ²⁾	2022 y.	2023 y. ²⁾
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	14 857	13 565	2 067	1 933
Nukus sh.	2 354	2 210	444	390
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	1 731	1 671	185	141
Beruniy	1 660	1 545	192	202
Bo‘zatov	141	107	23	15
Qonliko‘l	352	315	64	56
Qorao‘zak	366	316	50	54
Kegeyli	479	433	68	78
Qo‘ng‘irot	1 206	890	169	171
Mo‘ynoq	196	147	35	25
Nukus	440	364	54	52
Taxiatosh	495	460	96	74
Taxtako‘pir	219	241	52	41
To‘rtko‘l	1 752	1 816	177	171
Xo‘jayli	914	815	141	134
Chimboy	783	611	133	131
Shumanay	333	294	42	41
Ellikqal‘a	1 436	1 330	142	157

Migratsiya¹ (Ichki va tashqi). Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Respublika bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 8 399 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 15 875 kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)


		2022-yilning yanvar-dekabr oylarida	2023-yilning yanvar-dekabr oylarida
	Ko‘chib kelganlar	7 754	8 399
	Ko‘chib ketganlar	13 270	15 875
	Migratsiya saldosi	-5 516	-7 476

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida migratsiya qoldig‘i minus 7 476 kishiga (2022-yilning shu davrida minus 5 516 kishi) teng bo‘ldi. Eng katta minus qoldiqlar Chimboy (minus 901), Xo‘jayli (minus 836) va Qo‘ng‘irot (minus 824) tumanlarida kuzatilgan.


yanvar-dekabr oylarida

Soni, ming kishi

Ko‘chib kelganlar



Ko‘chib ketganlar



¹ Shahar va tumanlar hamda hududlar aro ichki migratsiyani qo‘shgan holda

² dastlabki ma’lumot

Shahar va tumanlar bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni

	Jami ko‘chib kelganlar (kishi)	shundan:		Jami ko‘chib ketganlar (kishi)	shundan:	
		Respublika-ning boshqa hududlaridan	Xorijiy mamlakatlardan		Respublika-ning boshqa hududlariga	Xorijiy mamlakatlarga
Nukus sh.	2 852	2831	21	3 538	2 002	1 536
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	306	294	12	829	634	195
Beruniy	294	287	7	650	332	318
Bo‘zatov	101	101	0	382	201	181
Qorao‘zak	200	194	6	522	333	189
Kegeyli	351	344	7	787	546	241
Qo‘ng‘irot	456	426	30	1 280	480	800
Qonliko‘l	266	260	6	471	386	85
Mo‘ynoq	182	179	3	396	179	217
Nukus	723	701	22	804	520	284
Taxiatosh	346	331	15	857	384	473
Taxtako‘pir	190	166	24	705	180	525
To‘rtko‘l	424	400	24	622	468	154
Xo‘jayli	648	631	17	1 484	622	862
Chimboy	430	427	3	1 331	747	584
Shumanay	273	258	15	542	415	127
Ellikqal‘a	357	357	0	675	487	188




Poytaxtdagi demografik holat



Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2024-yil 1 yanvar holatiga 339,2 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 4,6 ming kishiga yoki 1,4 % ga o‘sgan.

Nukus shahri aholisi tabiiy harakati (1000 aholiga nisbatan promille)

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida	2023-yilning yanvar-dekabr oylarida
Tug‘ilish	
20,7	20,7




2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 7,0 ming kishi tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda tug‘ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 20,7 promilleni tashkil etdi (2022-yilning mos davrida 20,7 promille bo‘lgan).

FXDYo organlarida 2023 yilning yanvar-dekabr oylarida 2,2 mingta nikoh va 0,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,6 promilleni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega kamaygan (2022-yilning mos davrida 7,1 promille bo‘lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,2 promilleni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaydi. 2022-yilning mos davrida 1,3 promille bo‘lgan.

Nukus shahrida tuzilgan nikoh va ajrim (yanvar-sentabr holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)



STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘shilib, o‘lganlar va muayan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlar iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

